

## JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TRANSFORMATSIYA HODISASINING O'RGANILISHI

*Ergashev Sardor Kosimovich*

*Qarshi davlat universiteti*

*Mustaqil izlanuvchisi*

*sardorergashev654@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida transformatsiya hodisasining o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, transformatsion metod hamda transformatsiya hodisasining tabiiy va ijtimoiy sohalarda atama sifatida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari va nazariyalariga munosabat bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, transformatsion usul, yadro markaz, tavsifiy tilshunoslik, qiyosiy metod, tarkibiy tahlil.

### KIRISH.

Millatning yashash tarzi, olamni badiiy idrok etish yo'sinida ulkan o'zgarishlar yasagan XXI asr o'zbek tilshunosligining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish, ulardan muayyan ilmiy xulosalar chiqarish mutaxassislardan katta mas'uliyat talab etadi. Bu asrga kelib dunyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbeklarning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzi avvalgi o'nlab asrlardagiga nisbatan jiddiy o'zgardi. Bu xalqimizning ma'naviy hayotida, tafakkur taraqqiyotida alohida bosqich bo'lib qoldi. Bugungi kunda o'zbek tilimiz yuksalib, taraqqiy etar ekan, tilshunoslarimiz oldida bu boy tilni tadqiq etish, chuqur o'rganish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Til odamlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanadi va insoniyatga xizmat qiladi. Tillar va til hodisalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Shaxs kamoloti va olamni idrok etishi haqida fikr yurituvchi barcha fanlar til bilan aloqador. Tilshunoslikning xarakteri, jamiyatdagi vazifasi, til tuzilishi va uni tashkil etuvchi qismlarning o'zaro munosabati kabi dolzarb masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama o'rganish talab etiladi. Sir emaski, tilimizda hali o'z yechimini kutayotgan masalalar talaygina bo'lib, bugun so'z yuritmoqchi bo'lgan transformatsiya jarayoni ham shunday mavzular qatoriga kiradi.

### ASOSIY QISM

"Tilshunoslikda transformatsiya deganda tilga xos bo'lgan tub, markaziy qurilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, boshqa bir qurilma hosil qilishtushuniladi" [1, 21]. Transformatsiya atamasi dastlab XX asrning 50-yillarida amerikalik olimlar tomonidan o'rganila boshlangan. Biroq, bu tushunchaning keng

qo'llanilishiga deskriptiv tilshunoslik asoschisi Leonard Blumfeldning "Til" nomli asarida keltirilgan strukturalizmning shakllanishiga yo'l ochgan g'oyalar asos bo'lgan. Strukturalistlar transformatsiya atamasini sintaktik tuzilishga nisbatan qo'llaganlar va hozirgi kunda ham bu atama gap tuzilishi tahlilida keng foydalanilmoqda. Fikrimizni dalillash uchun tilshunoslikka oid adabiyotlardan transformatsion metod ta'rifini keltiramiz: "Transformatsion metod – bu nisbatan kichik strukturalardan katta strukturalarni hosil qilishga asoslangan gapning sintaktik shaklini vujudga keltiruvchi metod sanaladi" [2, 191]. Transformatsiyaning lingvistik mohiyatini dastlab amerikalik olim Z.Xerris mukammal tarzda yoritib bergan. Olim transformatsiya jarayonida hosila gap asoslanadigan tuzilmani yadroviy struktura deb ataydi. Shuningdek, u hosila gap bilan asos gapning leksik birliklari bir xil bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlaydi. Z.Xerrisning fikrlariga asoslanib, quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Masalan: *Bolalar vazifani bajarishdi.*

*Vazifa bolalar tomonidan bajarildi.*

*Bolalarning vazifani bajarishi.* Bu jarayonda *Bolalar vazifani bajarishdi*. Ushbu sintaktik qurilma asos gap hisoblanib, uning quyidagicha shakl o'zgarishga uchragan, ammo mazmun yaxlidlini ta'minlagan hosilalari a) *Vazifa bolalar tomonidan bajarildi*. b) *Bolalarning vazifani bajarishi* kabilarda namoyon bo'ladi. Transformatsiyaning shartiga ko'ra, hosila qurilishning ma'no ifodasi oldingi qurilmaning mazmuni bilan mushtarak bo'lib kelmoqda.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda struktural tahlil usuli o'zining yuqori bosqichida transformatsiya bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, mazkur model va boshqa tadqiqot modellarining transformatsiyaga munosabati aniq til birliklari orqali ko'rsatilmagan. Bunday vaziyatda esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan til birliklari yordamida dalillar keltirilganini kuzatishimiz mumkin. "S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalarning tilshunoslikka oid asarlarida bu xususda quyidagilar til materialining tahlili uchun asos qilib olingan: "Qizaloq raqsga tushdi. Ushbu gapning transformalari: 1) Raqsga tushgan qizaloq edi. 2) Raqqosa qizaloq; 3) Raqsga tushadigan qizaloq. Gap qurilishi berilgan namunada turlicha bo'lib, uning asos ma'nosi bilan mushtarak ma'nolar transformalarda shakllanayotgani va har bir transformada muayyan turkumga oid bo'lgan so'zlar applikativ bog'lanishda ekanligi ta'kidlanadi" [3].

Transformatsion tahlilga ko'ra asos gaplar va ularning o'zgartirish asosida yuzaga keladigan xosilalarni aniqlab, ularni o'zaro taqqoslash hamda ular orasidagi birlik va alohidalik jihatlari aniqlanadi. Buday holatlar esa asos gap bilan xosila gaplarni sintaktik va semantik jihatdan solishtirish imkoniyatini beradi. Biz kuzatish va tahlillar asosida yana bir tilshunos olim N.Xomiskiyning transformatsiya haqidagi qimmatli fikrlariga duch kelamiz. "N.Xomiskiyning "Transformatsion grammatika"sida hosila strukturaning shakllanishida yadroviy struktura asosida yuzaki sintaktik struktura

voqelanishi masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Bu nuqtai nazardan N.Xomskiyning g'oyalari Amerika strukturalizmi g'oyalalaridan keskin farq qiladi. N.Xomskiyning "Transformatsion grammatika"sining kuchi shundaki, uning yordamida har bir gapning, har bir so'z birikmasining strukturasi alohida vakuumda emas, balki shu doirada qo'llanilayotgan boshqa gaplar va so'z birikmalari bilan uzviy munosabatda olib tekshiriladi" [4]. Sintaktik birliklar transformatsiyaga uchraganda gapni tashkil etuvchi qismlar: so'zlar, so'z birikmalari tartibida o'zgarish kuzatilsa-da, gapning umumiy mazmunida o'zgarish kuzatilmasligining guvohi bo'lamiz.

Transformatsiya hodisasi haqidagi umumiy qarashlar va nazariyalarni rus tilshunoslaridan S.K.Shaumyan, P.A.Soboleva, A.N. Tixonov, S.A.Savchenko kabilarning tadqiqotlarida, shuningdek, o'zbek tilshunos olimlaridan S.Mamatqulov, N.M. Qambarov, J.Eltazarov singari olimlarning dissertatsiya ishlari hamda ilmiy asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Biroq, bu transformatsiya hodisasining mohiyatini to'liq ochib beruvchi ilmiy qarashlar va nazariy qoidalar hali yetarli emas ekanligini ta'kidlash lozim. Tilshunos olim Ravshanxo'ja Rasulovning "Umumiy tilshunoslik" kitobida transformatsiya hodisasini tilshunoslik metodlari guruhiga kiritilib quyidagicha fikr bildirilganining guvohi bo'lamiz. "Sturktorial tilshunoslik metodlari "oиласига" – guruhiga tegishli bo'lgan transformatsion tahlil metodi, ayniqsa, sintaktik konstruksiyalar – nutq birliklari tadqiqida faol qo'llanilishi bilan muhim ahamiyatga ega" [5, 278.]. Ushbu qoidadan ma'lum bo'ladiki, transformatsion qurilishlarda ayni bitta sintaktik birlikning turlicha qurilishlari shakllanishi mumkin. Bu holdagi gaplarning qurilishi mavjud sintaktik birlikning ma'no - mohiyatini yanada chuqurroq tadqiq etishga yordam beradi. Bu esa transformatsiyaga uchragan gaplar orasida, albatta, asosiy mohiyat ifodalangan sintaktik birlik mavjud ekanini ko'rsatadi.

Transformatsiya atamasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u nafaqat tilshunoslikda, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarda ham o'z ifodasini topadi. Transformatsiya hodisasi tilshunoslik fanida yaqin asrlarda paydo bo'lgan ilmiy nazariy qarashlar sirasiga kiradi. Transformatsiya hodisasi nafaqat jahon tilshunoslida, balki o'zbek tilshunoslida ham olimlarimiz tomonidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va bugungi kungacha bu hodisa o'rganib kelinmoqda.

### **XULOSA**

Kuzatish va tahlillar, keltirilgan misollar asosida biz anglaymizki, transformatsiya hodisasi yuz berish jarayonida sintaktik birliklarning shakllari o'zgarishi mumkin, ammo mazmun mushtarakligi saqlanib qoladi. Transformatsiya atamasining sohalar aro faol qo'llanilishi, avvalo, fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Dunyo tilshunoslida erishilgan yutuqlardan foydalangan holda o'zbek tilshunoslida transformatsiya masalalarining ilmiy-nazariy talqinini va bu bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'zbek tilimiz taraqqiyotining transformatsion muammolarini atroflicha yoritish bugunning eng muhim vazifalardan biridir. Bir so'z bilan aytganda,

transformatsiya masalasi o'zbek tilshunosligida bugunda chuqur o'rganishni talab etadigan masalalar sirasiga kiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mamatqulov S. O'zbek tilida predikativ sintagmaning transformatsiyasi, - Toshkent., Universitet.1998.
2. Tatyana Bushuy, Shahriyor Safarov. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2007. 191- b.
3. <file:///C:/Users/User/Desktop/Azimova+Sayyora+Khusanboyevna.pdf>
4. [file:///C:/Users/User/Desktop/transformatsiya-lingistik-tushunchasifatida%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Desktop/transformatsiya-lingistik-tushunchasifatida%20(2).pdf)
5. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. Toshkent., 2010. 323-b.